

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 9-son (may, 2026-yil).– 66 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 14-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA
XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI 4-9

FILOLOGIYA FANLARI

Amonboyeva Feruzaxon

O'ZBEK MEDIADISKURSIDA MUHBIR NUTQINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 10-12

Isomidinova Zilola

RAQAMLI DAVRDA SO'Z ERKINLIGI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUVOZANATI 13-15

Ortiqova Ezozxon

INGLIZ TILI NOTARIAL TERMINOLOGIYASI TAVSIFI 16-25

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY TERMINLARINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI 26-29

YURIDIK FANLAR

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ИММУНИТЕТОВ И
ПРИВИЛЕГИЙ В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ 30-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Хайдарова Намунахон

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI:
PEDAGOGIK ASOSLAR VA TA'LIMIY OMILLAR 34-37

Parmonov Abdutolib

UMUMIY TEXNIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIY MEXANIKANI
O'QITISHNING INNOVATSION-DIDAKTIK MODELINI 38-41

Ибрагимова Нилуфар

ПРОДУКТИВНЫЙ СЛОВАРЬ СТУДЕНТОВ В1 В ПРОЦЕССЕ АУДИРОВАНИЯ
ПОДКАСТОВ 42-45

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNING
KONSTRUKTIVISTIK TAHLILI 46-50

Qo'ldasheva Shoxsanam

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MAHORATINI VIRTUAL O'YIN VA
SIMULYATSIYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH 51-54

Kasimova (Mulladjanova) Nasiba

LOYIHA TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL BILIM
OLISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 55-57

SIYOSIY FANLAR

Dilshoda Khakimova

WOMEN IN DECISION-MAKING POSITIONS: DOES FEMALE LEADERSHIP IMPROVE
GOVERNANCE OUTCOMES? 58-65

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY TERMINLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Isanova Feruza Tulqinovna

Toshkent davlat agrar universiteti, o'qituvchi

O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: isanovaferuza2909@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-0281-7977>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi huquqiy terminlarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida huquqiy terminlarning semantik, pragmatik hamda madaniy jihatlari tahlil qilinib, ularning milliy huquq tizimi bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, ingliz va o'zbek huquqiy terminologiyasining shakllanish omillari, tarixiy manbalari hamda tarjima jarayonidagi lingvistik muammolar o'rganilgan. Maqolada huquqiy terminlarning lingvomadaniy tabiati xalqning huquqiy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yuridik tarjima, terminologiya va lingvomadaniyat yo'nalishlarida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. huquqiy termin, lingvomadaniyat, yuridik til, huquqiy tarjima, semantika, pragmatika, terminologiya, common law, huquqiy diskurs, madaniy tafakkur.

LINGUISTOCULTURAL FEATURES OF UZBEKISTAN AND ENGLISH LEGAL TERMS

Isanova Feruza Tulqinovna

Tashkent State Agrarian University, teacher

Independent researcher, Uzbekistan State University of World Languages

Annotation. This article studies the linguocultural features of legal terms in Uzbek and English from a comparative perspective. During the study, the semantic, pragmatic and cultural aspects of legal terms were analyzed, and their inextricable connection with the national legal system was highlighted. Also, the factors of formation of English and Uzbek legal terminology, historical sources and linguistic problems in the translation process were studied. The article substantiates that the linguocultural nature of legal terms is an important tool reflecting the legal thinking and cultural values of the people. The results of the study are of scientific and practical importance in the areas of legal translation, terminology and linguoculture.

Keywords: legal term, linguoculture, legal language, legal translation, semantics, pragmatics, terminology, common law, legal discourse, cultural thinking.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2026v2i9/n05>

Kirish

Bugungi globalashuv jarayonida xalqaro huquqiy munosabatlarning kengayib borishi turli tillardagi huquqiy terminologiyani chuqur o'rganishni taqozo etmoqda. Xususan, ingliz tilining xalqaro huquq, diplomatiya va biznes kommunikatsiyasidagi ustuvor mavqei o'zbek tilidagi huquqiy terminlarni qiyosiy va lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish zaruratini kuchaytiradi. Huquqiy terminlar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, huquqiy tafakkuri va ijtimoiy-madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi [1].

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik lingvomadaniyat yo'nalishining shakllanishiga asos bo'ldi. Mazkur yo'nalishda til birliklari xalqning milliy tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlarini bilan uyg'un holda o'rganiladi. Huquqiy terminologiya esa

lingvomadaniyatning eng murakkab qatlamlaridan biri bo'lib, unda nafaqat lingvistik, balki tarixiy, siyosiy va huquqiy omillar ham mujassamlashadi.

Ingliz huquqiy tizimi asosan "common law" an'alariga tayangan holda shakllangan bo'lsa, o'zbek huquqiy tizimi roman-german huquq oilasi tamoyillari asosida rivojlangan. Shu sababli ikki til huquqiy terminologiyasida sezilarli semantik va pragmatik tafovutlar mavjud [2]. Ayrim terminlarning to'liq ekvivalenti mavjud emasligi esa tarjima jarayonida qator muammolarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'zbek va ingliz huquqiy terminlarining lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish, ularning semantik-pragmatik jihatlarini qiyosiy o'rganish hamda huquqiy tarjima jarayonidagi muammolarni ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot manbasi sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi yuridik lug'atlar, xalqaro huquqiy hujjatlar, normativ-huquqiy aktlar hamda ilmiy adabiyotlar tanlab olindi.

Qiyosiy metod asosida ingliz tilidagi "law", "justice", "court", "liability", "equity", "precedent", "contract" kabi huquqiy terminlar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari tahlil qilindi. Terminlarning semantik maydoni, qo'llanish konteksti va pragmatik xususiyatlari aniqlashtirildi.

Lingvomadaniy yondashuv orqali terminlarning milliy tafakkur, huquqiy ong va madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi o'rganildi. Tadqiqot davomida huquqiy terminlarning etimologik shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy funksiyasi ham hisobga olindi [3].

Shuningdek, tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik, adaptatsiya va transliteratsiya usullaridan foydalanish holatlari amaliy misollar asosida tahlil qilindi. Bu esa ikki til huquqiy terminologiyasining lingvistik va madaniy tafovutlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek huquqiy terminologiyasi o'rtasida sezilarli lingvomadaniy farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Huquqiy terminlarning shakllanishida har bir xalqning tarixiy rivojlanishi, davlat boshqaruvi tizimi va huquqiy an'analari muhim rol o'ynaydi.

Masalan, ingliz tilidagi "common law" termini ingliz huquq tizimining asosiy institutlaridan biri bo'lib, sud pretsedentlariga asoslangan huquq tizimini anglatadi. Mazkur termin o'zbek tilida ko'pincha "umumiy huquq tizimi" deb tarjima qilinadi, biroq bu tarjima terminning tarixiy-huquqiy mazmunini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki o'zbek huquq tizimida sud pretsedenti asosiy huquq manbasi hisoblanmaydi.

Shuningdek, "equity" termini ham lingvomadaniy jihatdan murakkab birlik hisoblanadi. Ingliz huquq tizimida u adolat va vijdon tamoyillariga asoslangan alohida sud amaliyotini anglatadi. O'zbek tilida esa ushbu termin odatda "adolat" deb tarjima qilinadi. Biroq bunda terminning huquqiy-funksional xususiyati qisman yo'qoladi.

Tahlillar natijasida quyidagi lingvomadaniy xususiyatlar aniqlandi:

1. **Tarixiylik xususiyati** – huquqiy terminlar muayyan tarixiy davr va huquqiy tizim mahsuli hisoblanadi.

2. **Milliy-madaniylik** – terminlar xalqning huquqiy mentalitetini aks ettiradi.

3. **Semantik ko'p qatlamlilik** – ayrim terminlar bir nechta huquqiy va pragmatik ma'nolarga ega.

4. **Tarjimadagi ekvivalentsizlik** – ayrim terminlarning boshqa tilda to'liq muqobili mavjud emas [4].

Masalan, ingliz tilidagi "consideration" termini shartnoma huquqida muhim element hisoblanadi va taraflarning o'zaro manfaatini anglatadi. O'zbek huquq tizimida mazkur tushuncha mustaqil termin sifatida shakllanmagan. Shu sababli uni tarjima qilishda izohli tarjima usuli qo'llaniladi.

Bundan tashqari, xalqaro huquqiy kommunikatsiya ta'sirida ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelayotgan "compliance", "mediatsiya", "arbitraj", "precedent" kabi terminlar soni ortib borayotgani kuzatildi. Bu esa huquqiy terminologiyaning globallasuv jarayoni bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Muhokama

Huquqiy terminlarning lingvomadaniy tabiati ularni oddiy leksik birliklardan farqlaydi. Har bir termin ortida muayyan huquqiy tizim, tarixiy tajriba va madaniy tafakkur mujassamlashgan bo'ladi. Shu sababli huquqiy tarjimada faqat grammatik yoki lug'aviy moslik yetarli emas.

Ingliz huquqiy terminologiyasi tarixan lotin va fransuz tillari ta'sirida shakllangan. Masalan, "plaintiff", "defendant", "attorney", "jurisdiction" kabi terminlar fransuz va lotin manbalariga ega. O'zbek huquqiy terminologiyasida esa arab, fors va rus tillarining ta'siri sezilarli. "Sud", "prokuror", "advokat", "kodeks", "konstitutsiya" kabi terminlar turli tillardan o'zlashgan birliklardir [5].

Lingvomadaniy nuqtai nazardan, huquqiy terminlar milliy huquqiy ongini shakllantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyatning huquqiy qadriyatlarini til orqali ifodalanadi. Shu bois ayrim terminlarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning madaniy mazmuni to'liq saqlanib qolmasligi mumkin.

Tarjima jarayonida quyidagi muammolar ko'p uchraydi:

- terminlarning ekvivalentsizligi;
- huquqiy tizimlar o'rtasidagi tafovut;
- pragmatik ma'noning yo'qolishi;
- terminlarning ko'p ma'noliligi.

Masalan, ingliz tilidagi "lawyer" termini umumiy ma'noda yuridik mutaxassisni anglatadi. O'zbek tilida esa "advokat", "yurist", "huquqshunos" kabi terminlar mavjud bo'lib, ular funksional jihatdan farqlanadi. Shu sababli tarjimada kontekst asosiy mezon hisoblanadi.

Zamonaviy lingvistika va terminologiyada huquqiy terminlarni standartlashtirish masalasi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xalqaro shartnomalar va normativ hujjatlarni tarjima qilishda terminlarning yagona standart variantlarini qo'llash huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz huquqiy terminlari lingvomadaniy jihatdan murakkab va ko'p qatlamli tizimni tashkil etadi. Ularning shakllanishida tarixiy, madaniy va huquqiy omillar muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy terminlarni tarjima qilishda faqat lingvistik moslik emas, balki huquqiy tizim va madaniy kontekst ham hisobga olinishi zarur.

Ingliz va o'zbek huquqiy terminologiyasi o'rtasidagi semantik va pragmatik tafovutlar ayrim terminlarning to'liq ekvivalentini yaratishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli huquqiy tarjimada izohli tarjima, adaptatsiya va kontekstual yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kelgusida o'zbek huquqiy terminologiyasini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, yangi terminlarning ilmiy asoslangan variantlarini ishlab chiqish hamda yuridik tarjima metodologiyasini rivojlantirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall, 1988.
2. Alcaraz, E., Hughes, B. Legal Translation Explained. Manchester: St. Jerome Publishing, 2002.
3. Ғафуров А. Тилшунослик терминологияси асослари. Тошкент: Фан, 2010.
4. Маҳмудов Н. Тил ва маданият. Тошкент: Маънавият, 2013.
5. Мўминов С. Лингвимаданият асослари. Тошкент: Akademnashr, 2016.
6. Хужанийазова Н.Т. "Yuridik terminlarning kontekstual tarjimasi: o'zbek va ingliz tili asosida" // Zamonaviy ta'limda ilm-fan va innovatsiya. – 2025. – DOI: 10.5281/zenodo.15471763.
7. Raxmatullayeva D. "Ingliz va o'zbek tillarida xalqaro huquq terminlarining tarjima xususiyatlari" // Academic Research in Educational Sciences. – 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2021.
10. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Университет, 2006.
11. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
12. Маҳмудов Н. "Тил ва нутқ: мулоқотнинг ижтимоий-маданий омиллари" (2012).
13. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
14. Ҳожиёв А. Ўзбек тили терминологияси масалалари. Тошкент: 2012.
15. Isanova, Feruza (2023). O'ZBEK TILI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3 (7). pp. 151-160. ISSN 2181-1342. <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/519>
16. Isanova, Feruza (2021) FEATURES OF TRANSLATION IN AGRONOMIC TERMINOLOGY IN ENGLISH LANGUAGE LESSONS. ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕК, 3 (16). pp. 248-252. ISSN УДК 37 <https://ilmiykutubxona.com/id/eprint/2080>
17. Isanova, F. (2023). STRUCTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE TERMS OF INTERNATIONAL LAW IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры*, 3(1 Part 1), 76–80. <https://lib.uniconflict.com/index.php/uilejsspc/article/view/8579>
18. Isanova, F. (2024). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID FRAZEOLGIK BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI. *Zamonaviy Dunyoda Ijtimoiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar*, 3(4), 32–34. <https://lib.uniconflict.com/index.php/uilzdif/article/view/29994>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 9-son (may, 2026-yil). – 66 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 14-may.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.